
BO'SH ISH O'RINLARI MEHNAT YARMARKASI TASHKIL ETILDI

Bugun Toshloq tumani prokurori Axrorjon Xudoyberganovning tashabbusi bilan 2-sektor hududidagi "Yangi yo'l" MFYda bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi bo'lib o'tdi. Tumandagi ishsiz va band bo'lmagan fuqarolar, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarning bandligiga ko'maklashish, ularni mehnat bozorida kasblarga yo'naltirish maqsadida o'tkazilgan mehnat yarmarkasida tumandagi 22 ta ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar o'zlarining 450 ta bo'sh (vakant) ish o'rinlari bilan ishtirok etdi. Korxonalar va tashkilotlardan tashrif buyurgan vakillar o'zlarida mavjud bo'sh ish o'rinlari haqida batafsil ma'lumot berishdi. Mehnat yarmarkasi davomida 128 nafarga yaqin fuqarolar ishtirok etdi. Ro'yxatdan o'tganlarning 70 nafarga yaqinini ayollar tashkil etgan bo'lsa, 58 nafarga yaqini yoshlardir. Ular o'zlariga mos bo'lgan ish o'rinlari bilan tanishdilar. Natijada, yarmarka davomida 33 nafar fuqarolar bilan ish beruvchilar o'rtasida mehnat shartnomalari imzolandi. Shuningdek, mehnat yarmarkasida tumandagi yirik korxonalardan biri hisoblangan "SMSHD TEX" MCHJning ham bo'sh ish o'rinlari taqdim etildi. Shu kuni ishlash istagida bo'lgan fuqarolarga korxonada yaratib berilayotgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniyati yaratildi. Bu kabi yarmarkalarning davomli tashkil etilishi, ishsiz bo'lgan fuqarolarimiz uchun o'zlariga munosib ish o'rnini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2023-02-20 16:26:28